

**Qodirov Shohbozjon G'ayratjon o'g'li**  
**Farg'ona davlat universiteti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi**

---

## **MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGI**

**Annotatsiya:** Sport turlarining asosiy, tayyorgarlik va maxsus mashqlari, milliy harakatli o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya usullari to'plamidan foydalanish zarurati e'tirof etiladi. Shu sababdan maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayonda ularning ahamiyatidan foydalanishga nisbatan turlicha yondashuv diqqatni tortadi.

**Tayanch so'zlar:** Jismoniy tarbiya, sport turlari, vaqt va fazo parametrlari, tayyorgarlik va maxsus mashqlari, milliy harakatli o'yinlar.

---

Jismoniy tarbiya amaliyoti, maxsus tadqiqotlar natijalari KJT mazmuni to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirdi. Aniqlanishicha, ushbu tayyorgarlik jarayonida mutaxassisda uning kasbiy faoliyatida kerak bo'ladigan sifatlar va fazilatlar kompleksi muvaffaqiyatli shakllanadi. Bu shug'ullanuvchilarning kasbiy-amaliy tayyorgarlik darajasini oshirishning uchta yetakchi yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Birinchisi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining hajmi va umumiy vaqtining oshishi, sport bilan shug'ullanishni faollashtirish bilan bog'liq, ikkinchisi jismoniy tarbiyaning maxsus yo'nalishini kuchaytiradi, uchinchi KJTning ko'proq muhokama etiladigan umumiy hamda maxsus vazifalarini kompleks hal etish bilan bog'liq. Biroq aytib o'tilgan faoliyat mazmuni tomonlarining nisbatlari va dinamikasi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni tahlil davomida aniqlay olmadik, bu shug'ullanuvchilarga ta'sir qilishda qo'llaniladigan vositalarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sport turlarining asosiy, tayyorgarlik va maxsus mashqlari, milliy harakatli o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya usullari to'plamidan foydalanish zarurati e'tirof etiladi. Shu sababdan maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayonda ularning ahamiyatidan foydalanishga nisbatan turlicha yondashuv diqqatni tortadi.

Temir yo'l oliy o'quv yurti talabalarining KJT tizimi tizimli-tuzilmaviy yondashuv va modulli tamoyil asosida loyihalashtirilgan.

K.X.Safiulina, L.D.Pozdnyakovalar temir yo'l transporti injenerlarining professiogrammasini tadqiq qila turib, quyidagilarni yetakchi psixologik sifatlar qatoriga kiritadilar:

- 1) jamlanish va diqqat;
- 2) harakatlanayotgan ob'ektga nisbatan reaksiya;
- 3) sensomotor koordinatsiya qobiliyati;
- 4) aqliy va jismoniy ishda chidamlilik.

Temir yo'l transporti mutaxassislarining kasbiy faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda KAJT jarayonida ham tezkor-texnik, ham rahbarlik, ham ma'muriy - ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga qodir bo'lgan universal mutaxassisni tayyorlashga yordam beruvchi vositalar va metodlardan foydalanish zarur.

Y.D.Jeleznyak fikricha, so'nggi vaqtlarda jamiyatda kasbiy faoliyat xususiyati jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar qayta ishga joylashish va fan hamda texnika sohasidagi ijtimoiy taraqqiyot holatlari bilan bog'liq.

Demak, oliy o'quv yurtidagi jismoniy tarbiya jarayonini qayta qurish lozim bo'ladi. U talabalarda aniq bilimlar, faoliyat usullari va ko'nikmalarning shakllanishiga olib kelishi kerak.

Ko'p yillik tadqiqotlar muhim psixik-jismoniy sifatlarni, harakat malakalarini hamda tiklanish usullarini shakllantirishga yordam beruvchi KAJT tizimini ishlab chiqishga imkon yaratdi.

Rossiya Federatsiyasining temir yo'l transporti oliy o'quv yurtlarida 1-5 bosqich talabalarining KJT muammosi chuqur o'rganilgan. Aniqlanishicha, o'quv jarayoniga KAJTning kiritilishi psixik-jismoniy sifatlarning hamda harakat malakalarining jasurlik, qat'iylik, o'sib boruvchi jismoniy toliqish zamirida o'zini jamlay olish va harakat vazifalarini tez hal etish, harakatlar hamda mushak kuchlanishlarini kuch, vaqt va fazo parametrlari bo'yicha aniq tabaqalash kabi sifatlarning rivojlanishiga yordam berdi .

Talabalarining KJT uchun shug'ullanuvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligiga asoslanadigan ma'lum bir tuzilma xosdir. Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarini KAJTning asosiy vazifasi turli xil jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida injenerning kasbga xos muhim sifatlari va fazilatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Y.D.Jeleznyak (2006) jismoniy tarbiya tizimida KJTning bir necha shaklini aniqlagan, ular quyidagi tamoyilga asosan bir guruhga jamlanishi mumkin - mashg'ulotlar (majburiy va fakultativ), havaskorlik mashg'ulotlari, kun tartibidagi jismoniy mashqlar, ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari. Guruhlarning har biri KAJTni amalga oshirishning bitta yoki bir nechta shakllariga ega. Ulardan butun talabalar kontingenti yoki uning bir qismi uchun tanlab foydalanish mumkin.

L.P.Matveyevning fikricha, jismoniy tarbiya dasturida «Talabalarining KJT» majburiy mavzu bo'yicha ma'ruza shaklidagi nazariy mashg'ulotlarni o'tkazishni nazarda tutadi. Uning maqsadi bo'lajak mutaxassislarni jismoniy tarbiya va sport vositalaridan kasbiy mehnat turlariga tayyorlash uchun ongli tarzda va metodik jihatdan to'g'ri foydalanishni ta'minlovchi zarur bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Nazariy bilimlarning ahamiyati juda katta, chunki bu talabalarga o'quv jarayonida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan zarur kasbiy-amaliy bilimlarni bayon qilish uchun yagona yo'l hisoblanadi va quyidagi masalalar yoritib berilishi lozim:

- ushbu fakultetda tayyorlanayotgan mutaxassislar mehnatining psixofiziologik xususiyatlari qisqacha tavsifi;

- ish kuni, hafta va yil davomidagi o'zgarishlarning xususiyatlarini yoritib bergan holda ish qobiliyati dinamikasi;

- yoshga xos va individual xususiyatlar, mehnatning iqlimiy-geografik va gigienik sharoitlarining mutaxassis ish qobiliyati dinamikasiga ta'siri;

- mutaxassisning ish qobiliyatini oshirish va tiklantirish uchun jismoniy tarbiya hamda sport vositalaridan foydalanish;

- ishlab chiqarishdagi toliqish bilan kurashish maqsadida, kasbga xos kasalliklarni oldini olish uchun jismoniy mashqlar va sport turlari metodikasining asosiy qoidalari;

- jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining kasbiy ta'limning tezlashishiga ta'siri.

Bu masalalarni mashg'ulotning birinchi yarmida bayon qilish zarur, material mazmuni esa ushbu fakultet bitiruvchilari kasbiy faoliyatining umumiy nazariy qoidalariga asoslanishi zarur.

Tayyorlov bo'limi o'quv guruhlarini uchun o'quv mashg'ulotlarining dasturi va mazmuni ushbu fakultet bitiruvchilarining mehnat sharoitlarini hamda xususiyatini o'rganish asosida ishlab chiqiladi.

Fuqarolar aviatsiyasi institutlari tinglovchilarining KJT bo'limida vestibulyar apparatni maxsus mashq qildirishga katta ahamiyat beriladi (akrobatika elementlari, batutda mashqlar, aylanadigan g'ildirak va h.k.).

Amaliy mashg'ulotlar, metodik ishlanmalar va bitta KJT turi bo'yicha ko'rsatmalarning mazmuni har xil fakultetlarda o'zining xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli ba'zi oliy o'quv yurtlaridagi (masalan, tabiiy fakultetlar uchun) talabalar KJTning ayrim bo'limlari bo'yicha mavjud metodik ishlanmalardan ko'pincha boshqa oliy o'quv yurtlarida tuzatishsiz foydalanib bo'lmaydi .

Maxsus o'quv bo'linmasida amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda KJT bo'yicha maqsadli mashg'ulotlar mazmuni har bir talabaning salomatlik holatidagi nuqsonlar xususiyatiga bog'liq holda uning imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

Mavjud nazariy ishlanmalar va amaliy ish tajribasi maxsus tashkil qilingan o'quv mashg'ulotlarida va amaliy mashg'ulotlarda talabalarning KJT vazifalarini bilvosita amalga oshirish mumkinligiga ishora qiladi. Bunday mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsad umumiy jismoniy tayyorgarlikdir.

Y.V.Bistritskaya haqqoniy tarzda e'tirof etadiki, umumrivojlantiruvchi va amaliy mashqlar orasida keskin chegara o'rnatish mumkin emas. Ma'lumki, umumiy va amaliy jismoniy tayyorgarlik parallel tarzda borishi, butun o'qish muddati davomida hal qilinishi zarur, biroq u yoki boshqa harakat tayyorgarligining ulushi ma'lum bir davridagi kabi har bir alohida mashg'ulotda ham o'zgarishi mumkin.

KJT ni bunday shaklda amalga oshirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan amaliy mashg'ulotlarda vositalarning to'g'ri tanlab olinishiga bog'liq.

O'quv amaliyotlari davrida o'qituvchilar rahbarligida KJT bo'yicha o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari keng tarqalmoqda.

Ba'zi oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilarning amaliy - jismoniy va maxsus sifatlar, ko'nikma va malakalarni tarbiyalashga hamda shakllantirishga yordam beradigan aniq amaliy bilimlarni taqozo etuvchi topshiriqlarni talabalar tomonidan mustaqil bajarilishi amalda qo'llaniladi.

Yuqori bosqichlardagi mashg'ulotlar ushbu fakultet bitiruvchilarining kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarga bag'ishlanishi kerak:

- mehnat sharoitlari va mutaxassisning mehnat jarayonidagi psxofiziologik yuklamalari tavsifi;

- mutaxassisning yuksak va barqaror mehnat unumdorligini ta'minlovchi jismoniy va maxsus - amaliy tayyorgarligiga bo'lgan asosiy talablar;

- yuksak mehnat unumdorligi va xavfsizligini ta'minlash uchun mutaxassisga kerak bo'ladigan asosiy kasbiy-amaliy malakalar ro'yxati;

- jismoniy tarbiya va sport vositalaridan kasbiy faoliyatga tayyorlash (o'z-o'zini tayyorlash) maqsadida foydalanish.

Bu masalalar mashg'ulotlarda maxsus tadqiqotlar materiallari bo'yicha keng yoritib borilishi, aniq kasbning, mutaxassislik va ixtisoslikning bo'lajak amaliy xususiyatiga ega ishonchli ma'lumotlarini o'z ichiga olishi zarur.

Ushbu mavzuni bayon qilishda mazkur yo'nalishda oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash xususiyati ham e'tiborga olinishi lozim. Bu yerda KJT bo'yicha zarur nazariy material ikki soat mashg'ulot davomida bayon qilinishi mumkin. Ushbu holda jismoniy tarbiya bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish paytida qisqa mavzuviy suhbat shaklidan ham foydalanish kerak .

Turli xil oliy o'quv yurtlarida yagona o'quv dasturida ko'zda tutilgan majburiy nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda KJTning ayrim bo'limlarini yorituvchi boshqa mavzularga bog'ishlangan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlar mazmunida, odatda, ushbu oliy o'quv yurti talabalari KJTning eng dolzarb tomonlari ochib beriladi .

Universitetlar va pedagogika oliy o'quv yurtlarida maktabda jismoniy tarbiya shakllari va metodlari, jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning asosiy tashkiliy-metodik qoidalari, ommaviy musobaqalarni tashkil qilish hamda o'tkazish, ayrim sport turlarida mashqlar bajarish paytida ehtiyotlash to'g'risida ma'ruzalar qo'shimcha tarzda olib boriladi.

Turli oliy o'quv yurtlarida shunday mavzular mutaxassis tayyorlash sohasiga bog'liq ayrim masalalarni har xil darajada batafsil ochib beradi. KJT bo'yicha amaliy o'quv mashg'ulotlari barcha bo'linmalarining maxsus, tayyorgarlik va sport takomillashuvi o'quv guruhlarida o'tkazilishi mumkin.

Eng samarali ta'lim metodlaridan biri, modulli o'qitish bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi unga taklif qilingan va bank axboroti hamda metodik yo'riqnomani o'z ichiga olgan dastur bilan mustaqil ishlay olishi kerak. Ushbu dasturda shaxsning individual ehtiyojlariga va uning bazaviy tayyorgarlik darajasiga yengil moslashish maqsad qilinadi.

Modulli o'qitishda pedagog, shakllantiruvchi vazifalardan tashqari, maslahatchi - muvofiqlantiruvchi vazifasini ham bajaradi. Amaliyotda modulli o'qitish tamoyilidan foydalanish o'quv materialini shunday tuzish imkonini beradiki, uning bo'limlari bir-biriga bog'liq bo'lmasligi kerak. Bu o'quv materialining yaxlit mazmunini buzmaganda uni to'ldirish va yaratish imkoniyatini beradi.

Talabalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida yuksak natijalarga erishish uchun mulohaza yuritish va muloqot qilish usullarini erkinlashtirishga yordam beruvchi interfaol metodlardan (rolli va vaziyatli o'yinlar, «Aqliy hujum», og'zaki testlash - «Kim tezroq javob beradi?») foydalanish tavsiya qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan sport turlari KJTni kompleks amalga oshirishning ta'sirli vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ular tegishli shakllarda tashkil qilinganda va ulardan tegishli sharoitlarda foydalanilganda shaxsning nafaqat turli-tuman sifatleri va fazilatlarini rivojlantirishga, balki mehnat samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlarning umumiy tizimiga uyg'un tarzda qo'shilib ketishiga yordam berishi mumkin.

Oxirgi yillarda KJTga yo'naltirilgan holda trenajorlar, maxsus sport snaryadlari bilan jihozlangan tredbandda bajariladigan mashqlar, to'siqli yo'lkalar va h.k. qo'llaniladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik va talaba yoshlar KJT mazmunining pedagogik muammolar kompleksiga yaqindan bog'liqligini e'tirof etish zarur. Adabiyot manbalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, mazkur yo'nalishdagi o'qituvchilarni tayyorlash bilan bog'liq muammo bo'yicha aniq ma'lumotlar va metodik tavsiyalar yetarli emas, aynan shu mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi hamda chuqur o'rganilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A.T.Xasanov [2018] «Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti talabalarining kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarligi pedagogik texnologiyasi» mavzusidagi dissertatsiya ishida blokli-modulli ta'lim tizimini keltiradi. Bu yerda I blok ko'proq umumiy va maxsus - kasbiy chidamlilikni rivojlantirishga; II blok - kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga; III blok - tezkorlik, tezlik sifatleri hamda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga va IV blok maxsus kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikka yo'naltirilgan.

Tayyorgarlik vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) yuzaga kelgan vaziyatda tez mo'ljal ola bilish ko'nikmasini shakllantirish;
- 2) o'z holatini nazorat qilish hamda murakkab sharoitlarda o'z harakatlarini boshqara olish ko'nikmasi hamda malakalarini shakllantirish;
- 3) jismoniy kuch, maxsus vositalar va favqulodda sharoitlarda o'qotar quroldan qonunan va taktik jihatdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi hamda malakasini shakllantirish.

Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ta'lim jarayonini tartibga soluvchi o'quv dasturlari, mavzuviy rejalar hamda boshqa xujjatlarning tez-tez almashib turishi fikrimiz dalilidir. Kursantlarning KAJT tayyorgarligini oshirish uchun jismoniy tayyorgarlik omillarini shakllantirishning blokli metodi ishlab chiqilgan. Birinchi blok - kuch va tezlik-kuch tayyorgarligi; ikkinchi blok - umumiy va maxsus chidamlilik; uchinchi blok - o'quv - jangovar amaliyot.

V.E.Jabakov [2007] KAJTni bosqichma-bosqich tuzilmaga bo'lishni tavsiya etadi. Birinchi bosqichda mustahkam poydevor qurish lozim, bunda jismoniy, ma'naviy, axloqiy-irodaviy sifatleri shakllantirish, favqulodda vaziyatlar hamda sharoitlarning yuzaga kelishiga nisbatan psixologik tayyor turishni hosil qilish zarur. Ikkinchi bosqich vazifalari birinchi bosqichda hosil qilingan jismoniy, psixologik, axloqiy-irodaviy sifatleri takomillashtirishdan, malakalarni va jangovar kurash usullarini egallashga bo'lgan texnik tayyorgarlikdan iborat bo'lishi kerak. Uchinchi bosqichda kurash usullarining texnik malakalarini takomillashtirish zarur. To'rtinchi bosqichda aynan texnik-taktik tayyorgarlikni (TTT) tashkil etish nazarda tutiladi. Bu yerda kursantlar o'quv olishuvini olib borishning individual uslubini takomillashtirishlari, ularga xos bo'lgan texnik usullar va taktik harakatlarga «sayqal» berishlari lozim. O'z navbatida, tadqiqotchilar o'quv jarayoni sifatleri oshirish to'g'risida fikr bildiradilar. Birinchi yo'nalish o'qituvchining fan bilimdonligiga, ikkinchisi psixologik bilimdonligiga kiritildi.



I.B.Fursov (2010) umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini umumiy tizimida ko'p profilli jang san'atidan foydalanishni tavsiya qilgan.

T.A.Rachkovaning (2011) maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, hali maktabdagi o'qish yillaridanoq o'quvchilarni tanlangan sohasi bo'yicha, ya'ni jismoniy madaniyat va sport sohasida oliy o'quv yurtiga kirishcha tayyorgarlik metodikasiga asoslangan holda tayyorlab borish zarurligini ta'kidlagan.

Maxsus adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, sport fanlari bo'yicha mashg'ulotlar davomida o'quv jarayonida sport mashg'ulotining o'ziga xos qonuniyatlaridan ham foydalaniladi. Ular qisqa muddat ichida talaba yoshlarning zarur darajada jismoniy tayyorgarlikka erishishlariga imkon yaratadi.

Talabalarning yetarli darajadagi jismoniy tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan vazifalar deyarli barcha shakldagi mashg'ulotlarda hal etiladi, bunda harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun standart mashqlar qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirilgan maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha asosiy metodik usullarni aniqlash, ularning real voqealarga hamda oldinda turgan pedagogik faoliyatga dinamik mosligini e'tiborga olish tamoyiliga asosan amalga oshirilishi kerak.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мўйдинов, А. (2021). ЁШЛАРНИ ТУРЛИ ТАХДИДЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 132-137.
2. Asilbek, M. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF EDUCATION OF AN ENLIGHTENED PERSON IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Conferencea*, 183-186.
3. Adham o'g'li, M. A. (2022). THE ROLE OF NATIONAL WITCHCRAFT HERITAGE IN THE SPIRITUAL RISE OF SOCIETY (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 122-127.
4. Muysinov, A. (2022). ENLIGHTENMENT IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX-EARLY XX CENTURIES. ENLIGHTENMENT BY JADID SCHOOL. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 14-20.
5. Ruzmatovich, U. S. (2022). PROCESSES OF ORGANIZATION OF TECHNICAL, TACTICAL AND PHYSICAL PREPARATION IN NATIONAL WRESTLING TRAINING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(3), 65-68.
6. Ruzmatovich, U. S. (2022). CHANGES EXPECTED TO COME IN OUR LIFE MOVEMENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 485-489.
7. Shohbozjon, K., & Azizjon, M. (2022). PREPARING SCHOOL STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS BEFORE ENTRY TO HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(10), 100-108.
8. Shavkatovna, S. R. (2021). Developing Critical Thinking In Primary School Students. *Conferencea*, 97-102.
9. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.

10. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.
11. Shavkatovna, S. R. N. (2021). Methodical Support Of Development Of Creative Activity Of Primary School Students. *Conferencea*, 74-76.
12. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.
13. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
14. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
15. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 235-239.
16. Maxamadaliyevna, Y. D., Òljayevna, Ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
17. Sharofutdinova, R. I., Asadullaev, A. N., & Tolibova, Z. X. (2021). The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(5), 376-379.
18. Iqboljon, S. (2022). Boshlang'ich Sinf o'quv Jarayonida Axborot Texnologiyalaridan Foydalanish. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(20), 137-140.
19. Iqboljon, S. (2022). KOMPYUTER YORDAMIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 246-249.